

KASB TANLASHDA OTA-ONANING ROLI

Mahmudova Gulmira Qutpiddinovna

Toshkent viloyati Parkent tumani

6-umumta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada farzandlar uchun kasb tanlashda ota-onaning roli tahlil qilinadi. Shuningdek, ba'zi ijobiy va salbiy jihatlari ko'rib chiqilib, ilmiy tadqiqotlar va dalillar asosida maslahatlar beriladi.

Kalit so'zlar: kasb tanlash, ota-onaning roli, kasbiy yo'naltirish, qobiliyat, qiziqish, motivatsiya, mustaqil qaror qabul qilish, psixologik qo'llab-quvvatlash, kasbiy rivojlanish, oilaviy ta'sir.

Kirish

Kasb tanlash inson hayotidagi eng muhim va mas'uliyatli qarorlardan biridir. Bu tanlov shaxsning kelajakdagi muvaffaqiyati, daromadi, ijtimoiy mavqei va hayotdan qoniqish darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli ushbu jarayonni to'g'ri tashkil etish juda muhim hisoblanadi. Ota-onalar esa bu jarayonda asosiy yo'naltiruvchi kuchlardan biridir. Shu bois ham ota-onalar farzandlari uchun ularni to'g'ri kasb tanlashlariga yordam bera olishi va bu masalada mas'uliyatni o'z zimmalariga olishlari lozimdir.

Asosiy qism

Kasb tanlashda ota-onalarning ta'siri juda katta hisoblanadi. Ota-onalar farzandning dunyoqarashi, qiziqishlari va qadriyatlarini shakllantiradi. Shu bois ular kasb tanlash jarayonida ham katta ta'sirga ega. Bu ta'sir maslahat berish, yo'l ko'rsatish, moddiy qo'llab-quvvatlash va shaxsiy namuna orqali namoyon bo'ladi. Ko'plab ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ota-onaning ta'lim darajasi va ijtimoiy holati farzandning kasbiy tanloviga sezilarli ta'sir qiladi. Tadqiqotlarga ko'ra, ota-onasi oliy ma'lumotli bo'lgan yoshlar ko'proq professional kasblarni tanlashga moyil bo'ladi. Shuningdek, ota-onaning qo'llab-quvvatlashi motivatsiyani oshiradi va mustaqil qaror qabul qilishni rivojlantiradi.

Ana endi ko‘p ota-onalar farzandini kasb tanlashi bo‘yicha qiladigan xatolarni ko‘rib chiqsak. 1-xato, ya‘ni, eng ko‘p uchrab turadigan xato bu — avloddan avlodga kasbni singdirish. Ya‘ni, ba‘zi tushunchalarga ko‘ra, bir avlod bo‘yicha qandaydir kasb egallangan bo‘lsa, o‘sha kasbni ota-onalar farzandlari ham egallashini xohlashi. Masalan, otasi o‘qituvchi bo‘lsa, otasining otasi ham o‘qituvchi bo‘lgan va hokazo va ota-ona xohlaydiki farzandi ham o‘qituvchi bo‘lishini. Bu aslida yaxshi va otadan kasbga oid qobiliyatlar farzandga ham o‘tishi bor gap. Ammo shunday vaziyatlar ham bo‘ladiki, farzandda boshqa kasbga nisbatan xohish va qobiliyati ko‘proq bo‘ladi. Lekin ba‘zi ota-onalar buni ko‘rishmaydi va avlodida egallangan kasbni farzandi ham egallashini istashadi. Bu bir so‘z bilan aytganda qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi.

2-xato bu — farzandga 7 yoshligidan boshlab qo‘shimcha ko‘plab fanlarni yuklash va o‘smir bo‘lganidan keyin ya‘ni ulg‘ayganidan keyin ko‘p hollarda beparvolik qilish. 3-xato farzandga rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratib bermaslik, uni o‘rniga sarf-xarajatni uncha muhim bo‘lmagan idish-tovoq, turli xil mebellar, uy-joylar remonti va shu kabi narsalarga ko‘proq e‘tibor berish. Ya‘ni, ba‘zi ota-onalar farzandlari va ularni qiziqishlaridan kelib chiqqan holda kichik bo‘lsada kutubxona yaratish, ya‘ni, kitoblar bilan ta‘minlash va shu kabi material-texnik ba‘za yaratib berish haqida unutilib qo‘yishadi.

Keyingi 4-xato bu ota-onalarda uchrab turadigan fanatizm. Fanatizm deganda bironta mashhur inson masalan, sportchi, aktyor, qo‘shiqchi, oshpaz kabilarga o‘xshashni xohlashi. Ya‘ni ota-onalar xohlaydiki shu kasbni farzandlari egallashini. Bundan tashqari shunga o‘xshash keyingi xatolik bu — farzandini boshqa bolalar bilan taqqoslash. Boshqa bolalar erishgan muvaffaqiyatni ko‘rib o‘z farzandlariga ham o‘sha kasbni singdirishga urunish. Vaholanki, yuqorida aytib o‘tilganidek ota-onalar bunday xatoliklarni qilib o‘z farzandlaridagi boshqa mutaxassislikka bo‘lgan qiziqishlarni va qobiliyatlarni ko‘rmay qolishadi. Bu kabi xatolarni esa vaqtida bartaraf etish lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda farzand kelajakdagi o‘z kasbini o‘zi tanlashi kerak, ota-onasi emas. Ota-onalar uchun eng to‘g‘ri yondashuv — bu farzandga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish

qiziqishlari va qobiliyatlaridan kelib chiqib halol va to'g'ri kasblarni ko'rsatib bera olishi lozim, lekin yakuniy tanlovni uning o'ziga qoldirishi kerak. Ota-onalar farzandlariga kasb tanlashda yordam berishda quyidagi jihatlariga e'tibor qaratishi lozim:

1. Farzandning qiziqishi va qobiliyatini aniqlashga;
2. Farzandlari bilan ochiq muloqot olib borishga;
3. Zamonaviy kasblar haqida farzandiga ma'lumot berishga;
4. Mustaqil qaror qabul qilishiga imkon yaratishga;
5. Psixologik qo'llab-quvvatlashga.

Shundagina farzand o'z qiziqishiga mos kasbni tanlab, kelajakda muvaffaqiyatga erishadi.